

O'SPIRINING KIYIMINI LOYIHALASHDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR (fiziologiya, psixologiya, anatomiya, vizualizatsiya)



Xolboyeva Ra'no Anvarovna

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi,
magistr
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn
institut

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-03-14>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'spirin bolalar kiyimlarini loyihalashning o'ziga xos xususiyatlari va o'spirin bolalar kiyimlariga qo'yiladigan umumiy talablar, o'spirin bolalarning psixologik va jismoniy rivojlanish jarayoni, o'spirinning rangni qabul qilishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, Ilm-fan, Kadrlar tayyorlash, Uzluksiz ta'lim, O'rta ta'lim, Oliy ta'lim, Estetik tarbiya, O'spirinlar psixologiyasi, Kiyinish madaniyati, Maxsus forma, Gigiyenik talablar, Ergonomika, Konstruktiv loyihalash, Akseleratsiya, Transformatsion kiyim, Libos dizayni, Moda va zamonaviylik, Yoshlar texnopark.

Аннотация: В статье анализируются особенности проектирования детской подростковой одежды и общие требования, предъявляемые к детской подростковой одежде, процесс психофизического развития детей подросткового возраста, восприятие цвета подростком.

Ключевые слова: Независимость, Наука и образование, Подготовка кадров, Непрерывное образование, Среднее образование, Высшее образование, Эстетическое воспитание, Психология подростков, Культура одежды, Школьная форма, Гигиенические требования, Эргономика, Конструктивное проектирование, Акселерация, Трансформируемая одежда, Дизайн одежды, Moda и современность, Молодёжный технопарк.

Abstract: The article analyzes the design features of children's and teenage clothing and general requirements for children's and teenage clothing, the process of psychophysical development of adolescent children, and the perception of color by a teenager.

Keywords: Independence, Science and education, Human resources development, Lifelong learning, Secondary education, Higher education, Aesthetic education, Adolescent psychology, Dress culture, School uniform, Hygienic standards, Ergonomics, Constructive design, Acceleration (in growth), Transformable clothing, Clothing design, Fashion and modernity, Youth technopark.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ilm-fan sohasida izchil o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Yosh avlodga e'tibor shular jumlasidan.

Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi orqali zamonaviy ta'lim yo'nalishining yosh avlod o'rtasida siyosiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini bildirmoqda.

Ta'lim jamiyatdagi insonlarni qadriyatlariga bo'lgan to'g'ri qarashni shakillantiradi. Shu tufayli ta'lim o'qitish va o'z-o'zini anglash jarayonida insoniyatga ko'mak beradi. Ta'lim muassasalarining rivojlanib borishi joylashgan hudud, siyosiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoni, shaxs, jamiyat va davlatni xohish-irodasiga mutanosibli bilan uzviy bog'liq.

Kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim yo'nalishida olib borilgan izchil ishlar yangi me'yorlarni ishlab chiqish va tadbiriq etishga olib keldi. Uzluksiz ta'lim o'z ichiga davlat ta'lim standarti(DTS)ni, o'qitish tizimining yangi turlarini o'z ichiga oladi. O'qitish tizimi bir necha bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oily ta'lim,

malaka oshirish va kadrlar tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim, oiladagi ta'lim va mustaqil ta'lim.

O'zbekiston Respublikasida ta'limga e'tibordan maqsad - yosh avlodni intellektual rivojlanishi, chuqurlashgan, maxsus yo'naltirilgan ta'limga bolada bo'lgan layoqatni shakllantirish, bolaning mustaqil fikrga ega bo'lishi va o'z bilimlarini jamiyatga to'g'ri yetkazib uning rivojiga hissa qo'shishidir.

Ta'limning asosiy vazifasi globallashib borayotgan jamiyatda texnika va texnologiyaning tezkor almashib borishiga o'spirinning moslashib, kadr sifatida shakllanishini ta'minlashdir. O'spirin qiz va yigitlar o'rta ta'limni yakunlab, bozor iqtisodiyotiga raqobatbardosh kadr bo'lib yetishibgina qolmay, uzluksiz ta'limning keyingi bosqichiga yo'l olish imkoniga ega bo'ladi.

O'rta ta'limni bitirgan talabalar o'z xohishlari bilan o'qish yo'nalishini tanlashadi. Natijada talabaning intellektual salohiyati oshadi, o'z bilimlari mustahkamlanadi, maxsus bilimlarga ega bo'ladi va ularni kelgusi o'qish jarayonida qo'llashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Kasb-hunar kollejlari talabani tanlagan sohasi bo'yicha bilimlarini mustahkamlaydi, nazariy bilimlarini amaliyotga tadbqiq etadi. Talabani kasbga yo'naltiradi.

O'rta ta'lim talabaga kelgusida uzluksiz ta'limning keyingi bosqichiga o'tishga teng huquq beribgina qolmay, o'z bilim va ko'nikmalarini jamiyatga kadr sifatida qo'llashga ham imkon beradi.

Maqolaning maqsadi ta'lim olish jarayoniga e'tiborda emas, aynan shu muassasada ta'lim olayotgan talabaning estetik qarashlarini to'g'ri shakllantirishidir. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshlash kerak. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, tog'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustivor yo'nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini biryo'la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir necha ustivor yo'nalishini rivojlantirish tarafdori bo'lishimiz darkor.

Ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish lozim. Har bir oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qoymog'i maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallash har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi shartiga aylanib borayotgani hech kimga sir emas. Ana shu haqiqatni chuqur anglagan holda, biz navqiron avlodimizning ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun bor kuch va imkoniyatlarni sarfarbar etishimiz maqsadga muvofiq. Iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash uchun har bir hududda Yoshlar texnoparklarini barpo etish maqsadga muvofiq [1].

Maxsus kiyim-formaga bo'lgan e'tiborsizlik talabalar o'rtasida estetik qarashni sustlashishiga olib keladi. Kiyim-bosh (forma) – bu hali to'liq yetilmagan bola psixikasiga bo'lgan e'tibordir. Davlatda istiqomat qilayotgan turli oilalardagi moddiy yetishmovchiliklar bolaning ta'lim olishiga to'siq bo'lmasligi kerak. Kiyim-bosh iqtisodiy nomutanosiblikni yechibgina qolmay, bolaning kelajakda ishga joylashganida maxsus kiyimga bo'lgan e'tiborini, didini, yurish-turishini, etika va optimistik ruhini shakllantirishi kerak. O'spirin o'qish jarayonida chalg'imasligi, iqtisodiy kamchiliklarni unutib, fikrini bir joyga jamlagan holda tengqurlari bilan sog'lom fikrlashi zarur. Bunda kiyim-boshning o'rni juda muhim ahamiyatga ega. O'spirin tengqurlaridan "nima"si bilandir ajralib tursa ham, o'sha "nima" – bu uning bilim salohiyati bo'lishi kerak.

Bu maxsus kiyim kiyim-bosh ota-onalarni ham mavsum davomida ortiqcha qo'shimcha xarjlardan xalos etadi. Bir uslubda tanlangan maxsus kiyim zamonaviyligi, qulayligi talabaning kiyinish madaniyatiga nisbatan to'g'ri qarashini shakllantiradi.

Kiyim odamni tashqi muhitning salbiy ta'sirlaridan saqlovchi vosita hisoblanadi. Kiyimning asosiy vazifasi tanani himoyalash bo'lib, estetik vazifasi zamonlar osha shakllangan.

Kiyimning rivojlanish tarixi mobaynida kiyimga bo'lgan talablar ham ortib borgan. Har bir kiyim yaratilar ekan, uning yaratilish maqsadidan kelib chiqqan holda libos loyihasi ishlab chiqiladi.

Kurnyova S. V. [2] ning loyihasida uyg'unlik qonuni ilgari surilgan. Loyihada o'spirinlar uchun mo'ljallangan ustki kiyimlarning gorizontal va vertikal bo'linish chiziqlarining maqbul yechimlari haqida to'xtalgan.

Mamedova F. A. [3] ning izlanishlari kiyimni loyihalashda ratsional texnologiyalarini ishlab chiqish bo'lib, loyiha o'quvchilar formasi orqali ko'rsatilgan.

Shomuxitdinova L. Sh. [4] ning loyihasida transformatsiya asosida bolalar kiyimining ekspluatatsiya davrini uzaytirish ko'zda tutilgan.

O'spirin uchun libos to'plami yaratilar ekan o'spirin psixologiyasi va fiziologiyasi hisobga olinadi va bir qator talablar asosida ish boshlanadi. Barcha talablarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: iste'mol talabi va ishlab chiqarish.

Iste'mol talabi o'z ichiga sotsial, funksional, ergonomik, iste'mol va ekspluatatsion talablarni qamrab oladi.

Sotsial talablar jumlasiga maqsadga yo'naltirilgan assortimentni ishlab chiqarish kirib, bunda maqsad bolani tarbiyasini to'g'ri yo'naltirib, ichki va tashqi bozorga raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdir.


Funksional talablar libosni aniq bir maqsad asosida yo'naltiradi. Ya'ni libos vazifasini belgilaydi. Libos o'zining o'lchamlari, konstruktiv shakli, mato xususiyati bilan birlamchi belgilangan vazifani to'laqonli bajarishi kerak. Libos to'plamini yaratish jarayonida qomatning yoshga nisbatan o'zgarish shaklini o'rganiladi, o'spirinni tashqi va psixologik holatini belgilaydi, o'spirinning jinsi va gavdaning uzunligi hisobga olinadi. Bundan tashqari mato, naqsh va bezaklar, rangni mutanosibligi o'spirinning didiga mos tushishi kerak. Loyihalashtirilayotgan libos o'zining funksional talablaridan kelib chiqib ko'p qavatli shaklga ega bo'lishi mumkin. Har bir qavatning o'z vazifasi bo'lib, o'spirin harakatini cheklamasligi kerak. Asos mato bir qator mexanik ta'sirlarga chidamli, dekorativ yechimga ega bo'lishi kerak. Bu talablarni ta'minlash uchun mato mustahkam, ishqalanishga chidamli, havo o'tkazuvchan, chiroyli va albatta moda talablari doirasida bo'lishi kerak. Bularning barchasi birlashib gigiyenik talablarni qondira bilishi muhim ahamiyatga ega.

Ergonomik talablar antropometrik, gigiyenik, psixofizik talablarni o'zida birlashtiradi. Antropometrik talablar libos o'lchamlariga asoslanadi. O'spirin tana tuzilishi, proporsiyasi va uning turli yurish-turishdagi harakatlar kiyim-bosh yaratilishida hisobga olinadi. Yeng va yoqa qismidagi harakatlarga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Tananing shu qismlarida matoning surilish va ishqalanish darajasi yuqori bo'ladi. Tor bichimdagi libos o'spirin harakatini cheklaydi, qon aylanishida buzilishlar sodir bo'lishiga olib keladi, terini jarohatlaydi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, o'spirin tinch holatga nisbatan harakatda ko'proq vaqt bo'ladi. Natijada libos loyihasini tuzishda matoning dinamikaga moslashuvchanligi birinchi o'ringa o'tadi. Harakat mutanosibligining me'yorini belgilash o'spirinning asosiy harakatlari(kiyim-bosh kiygan paytidagi) o'rganildi. Bular:

- yelka qismidagi (qo'lni bukish, yelka qismidagi harakatlar, qo'lni tepaga, pastga, yonga ko'tarish va tushirish);
- bel qismidagi (o'tirish, turish, bo'ksa va sonning harakati);
- dinamikadagi (yurish, yugurish, sakrash);
- bel sohasidagi (egilish, bukilish, old-orqa va yonga egilish) harakatlar.

Harakatlar umumlashtirildi hamda o'spirin o'qish jarayonidagi harakatlar tanlab olindi. 1-rasmda harakatni holati ko'rsatilgan. Bosim tushgan joy yo'nalish chizig'i bilan belgilangan.



1-rasm. O'spirin harakati va harakatda bosimning joylashgan holati.

Harakatlarni kuzatish shuni belgilaydiki o'spirin qo'l orqali bajaradigan harakatlari boshqa harakatlariga nisbatan ko'proq. Ya'ni bosim libosning yoqa va yeng o'mizi, yeng uchi va tirsak, kurak sohasiga tushadi. Yelka ya'ni kurak sohasidagi bosim hamma harakatlarda mujassam, bel sohasidagi harakat esa holatga qarabgina bosimga ega bo'lmoqda. Natija shuni ko'rsatadiki, libos to'plamini loyihalashda aynan shu harakatlar asos qilib olinishi kerak.

Gigiyenik talablar asosida haroratni mutanosibligi, ichki haroratning barqarorligi, tanani tashqi ta'sirlardagi ifloslanish va jarohatlardan holiligi belgilanadi. O'spirin hali bolalar safida hisoblanib, uning organizmi butunlay bu ta'sirlarga chidamli emas. Ichki harorat ham barqaror shakllanmagan. Ma'lumki, o'spirin terisining nafas yo'llari, katta yoshdagi insonlarga nisbatan kichikroq bo'ladi. Kattalardagi mushak sohasidagi aktiv holat natijasida sodir bo'ladigan nomutanosiblikni termoregulyatsiya yordamida tana mutanosib holatga olib keladi. O'spirinda tananing yuqori qatlami katta yoshdagilarga nisbatan $0.3^{\circ}\text{--}0.4^{\circ}\text{C}$ ga yuqori. Arterial bosim 90-120 mm.ga teng. Bu keskin farq ham bolaga libos to'plamini yaratishda e'tiborini qaratishni bildiradi.

Psixofiziologik talablar tashqi muhit atrofidagi insonlarning libosni qabul qilishiga taqaladi. Libos o'spirinda qarshi reaksiya va noxush holatni keltirib chiqarmasligi kerak. Tanaga ta'sir qiladigan noxush holatni keng va tor bichim, matodagi tolaning dag'alligi, qo'pol tarzda ishlov berilgan chok va qaytarmalar, tor bichimda taqiladigan tugmalar, rezinali yeng, yoqada qo'llanishi va h.k.lar keltirib chiqaradi. Bundan tashqari kiyim-bosh oson yechilishi, kiyilishi, boshqa kiyimlar bilan ham moslasha olishi va o'spirinda erkinlikni saqlashi kerak.

Estetik talablar kompozitsion yechim va rangning to'g'ri tanlanishiga asoslanadi. Shaklning mutanosibligi, moda yovnalishi va tovarning ko'rinishi estetik talabni oshiruvchi omillardir.

Kostyumning shakli – vaqtinchalik davrni o'z ichiga olib, shakl bir paytda madaniyat, uslub, moda, jamiyatning shakllanishi va shaxsning individual qarashlarini ifodalaydi ham. G'oya, shakl, qulaylik va ishlab chiqarishni kompozitsion yechim orqali topish mumkin. Estetik talablarni kuzatish orqali o'spirin psixikasida estetik didni va ko'zning qabul qilishi qoidalari asosida shakllanishini bilish mumkin.

Ekspluatatsiya talablari muhim talablardan biri bo'lib, iqtisodiyotga taqaladi. Kiyim(ya'ni maxsus kiyim-bosh)ning uzoq muddat kiyishga yaroqliligi, shaklni ushlashi, ishqalanishga, yuvilishga, yirtilishga, bukilishga, kimyoviy ta'sirlarga chidamliligi ekspluatatsion davrni belgilaydi. Bunda konfeksion xaritada materialni to'g'ri tanlash libos ekspluatatsion davrini uzoq va qisqaligini keltirib chiqaradi. Noto'g'ri tanlangan materiallar natijasida ekspluatatsion talablariga buzilmay estetik talablar esa buzilishi mumkin.

Konstruktiv talablar ishlab chiqarishda ahamiyatli bo'lib, konstruktiv choklar, bichimdagi joylashuvni, tikish muddatini o'z ichiga qamrab oladi. Konstruktiv loyihalash aniq o'lchamlar

asosida qurilgan bo'lib, qomatni to'g'ri qaytara bilishi va shaklni ushlashi kerak. Kiyimni tayyorlashda yuqori texnika va texnologiya ishtiroki albatta inobatga olinadi.

Iqtisodiy talablar uzoq muddatlilikligi va ko'p vazifaliyligi, mahsulot narxining cho'ntak bopligi va tananing o'sishiga transformatsiyalasha oladiganligi bilan ta'riflanadi.

O'spirinlar libos loyihasini ishlab chiqishda har bir talab ikkinchisi bilan mutanosibdir. Birini talab darajasida emasligi boshqasining buzilishiga olib keladi. Talablar birinchi darajada yoki ikkinchi darajada bo'lsa ham ular bir-birini to'ldiradi. Bunda bolaning yoshi hisobga olinadi. Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga gigiyenik talablar birinchi o'ringa ko'tarilsa, o'spirinlar kiyimida estetik did ham birinchi o'ringa ko'tariladi. Chunki o'spirinda psixologik "men" shakllanadi va u o'zining yurish-turishi orqali ham buni ifodalashga urinadi [5].

O'spirin bolalarda psixikaning shakllanishi. O'spirin bolaning rivojlanishi va shu davrga kelishi murakkab psixologik va fiziologik bosqichlarni qamrab oladi. Har bir materiya(Yer, tabiat, jonivorlar va inson)ning buguni uning rivojlanish mezoniga borib taqaladi [6].

O'spirin bolaning psixik rivojlanish davri bir me'yorda shakllanmagan. Har bir bosqich o'zida avvalgi bosqichning elementlarini saqlagan holda yangi bosqich shakllanishiga zamin yaratadi. Bolaning shakllanishi tashqi ta'sirlarga bog'liq holda sodir bo'ladi. Yil sayin atrof-muhit, odamlar(ona, oila, bog'cha, maktab, oliy o'quv yurtlari va h.k.) bolaning fikrlashiga ta'sir o'tkazadi. Bunday ta'sirlarning ortishi bolada individ holatining shakllanishida salbiy yoki ijobiy ko'rinish hosil qiladi. Bu ta'sirlar ham bolaning sog'lom fikrlashi va o'sishiga albatta moslashadi va o'z o'rnini boshqa bosqichga bo'shatib beradi. Shu bilan tabiat yaratgan o'sish jarayoni shakllanadi.

Bolaning o'sish jarayonini shartli ravishda beshta bosqichga, besh xil qolipga solish mumkin.

Birinchi bosqich(bir yoshgacha) – tetik anglash. Bunda bola atrof-muhit va uning barqarorligiga bo'lgan ilk munosabatlarni bildiradi boshlaydi.

Ikkinchi bosqich(uch yoshgacha) – narsalarni anglash. Bu bosqich tug'ilib o'qiy boshlaydi, endilikda bola buyumni mohiyatini anglab yetadi. Qo'l-oyoq harakatlarining jadalligi, tananing gorizontol holatdan vertikal holatga o'tishi kuzatiladi, ya'ni tik yura boshlaydi. So'zlarning ma'nosini anglash, obstrakt qarashlar, so'zlay boshlash va individ shaklda rivojlanish bu bosqichning yakuni hisoblanadi.

Uchinchi bosqich(yettidan to'qqiz yoshgacha) – o'zini anglash. Bu bosqichda bolada ovziga xos xususiyatlar shakllanadi. Borliqqa bo'lgan birinchi qarashlar to'ldiriladi. Tashqi muhitdan ma'lumot olishni o'rganadi. O'z "men"ini anglashga urinadi. Bunda yaqinlari va tengqurlari bilan ko'proq suhbatlashgisi keladi.

To'rtinchi bosqich(sakkizdan o'n ikki yoshgacha) – umumiy fikrlash. Bunda bola o'z bilimlarini kollektiv bilan baham ko'rishga va muloqotni tashkil etishga urinadi. Bu bosqich to'rt yoshdan shakllanib shu bosqichda o'zining kulminatsion nuqtasiga keladi, ya'ni bola mohiyatni xayolan anglash va unga o'z fikrini, atrofda qilgan fikrini bildirishga intiladi. O'zida bor va shakllanayotgan bilimlarni atrofda qilgan bilimlariga qiyoslay boshlaydi, ya'ni yaxshi va yomonni anglash, o'z insonlik imkoniyatlarini belgilash davri.

Beshinchi bosqich(o'n uch-o'n oltidan yigirma ikki yoshgacha) – refleks anglash. Bunda bola bilimlariga va ko'nikmalariga subyektiv yondashadi, bir qator yangiliklarni anglaydi va aksincha hech qanday aks reaksiya bermasligi ham mumkin. Atrofida bo'layotgan voqea va hodisalarga loqayd va aksincha juda e'tiborli yondashadi. Bu bosqichda me'yor shakllanishi to'xtaydi, aksincha nomutanosiblik yuqori ko'rsatkichlarda bo'ladi. Bu davrni o'z nomi bilan ham atash mumkin; "o'tish davri", "qiyin davr", "tanqidiy davr". O'zgarishlarning katta-kichikligi organizmdagi turli o'zgarishlar, o'z-o'zini anglash, jamiyatdagi mavqeyi, qiziqishlariga bo'lgan intilishi va boshqalar ta'siri ostida muntazam o'zgarib turadi. Eng asosiy belgi o'spirinning o'zini anglashi dunyoqarashining muhim omili bo'ladi. Bunda o'spirin o'zida bor bilim zaxirasi orqali butun jamiyatni o'zgartirishga harakat qiladi va bilimlarini shu yo'lda sarflaydi. Bu qarashlar yangi, ammo "xom" bo'ladi. Aynan shu qarashlar ilmiy yangiliklarga, yangi asosli qarashlarga poydevor vazifasini o'tashi mumkin, qachonki, o'spirin qarashlari to'g'ri sayqallansa. Kiyinish

madaniyati ham shular jumlasidan. O'spirinning bu holati faqatgina uning dunyoqarashini kengaytirib qolmaydi, atrof-muhitga, atrofdagi insonlarga ham ta'sir o'tkazadi [7].

Ko'plab faktorlar o'spirinning psixikasiga ta'siri izlanishlar natijasida aniqlangan. O'spirin tana tuzilishining shakllanishi bilan bir qatorda jinsiy yetuklik ham shakllanadi. Bir qator yangi imkoniyatlarga ega bo'lgan o'spirin qarashlarida ham o'zgarish kuzatiladi. Jumladan bir narsani asos qilib olish, o'zining xatti-harakatini nazoratga olish, atrofdagi ta'sirlarga o'zining nigohi bilan qarash, hayotiy qarorlarni ilk bor qabul qilish (kasb tanlash, yoqtirgan insoni, o'z bilimlarini yo'naltirish va h.k.), ota-ona bilan yangicha muloqotga kirishish, tengqurlari bilan yaqin do'stona aloqada bo'lishdir.

Bu davrning so'nggi ya'ni tugash bosqichida o'spirin o'zida shaxsi haqida qandaydir tushunchalarga ega bo'ladi, taqdirga his-hayajon bilan yondashadi, o'z xulqidagi salbiy illatlardan forig' bo'lishga urinadi, o'z hayot yo'liga aniq maqsad va vazifani ko'ndalang qo'yadi. O'zini anglash o'spirinning atrofdagilar bilan solishtirish natijasida yuzaga keladi. Eng maqbul tanlov o'spirinning tengqurlari bo'lib, u o'zini tengqurlari bilan solishtiradi.

Bunday yo'l bilan o'spirinlik davri murakkab psixik rivojlanish bosqichini bosib o'tadi. Natijada muhit va atrofdagi insonlar bilan munosabatida qayta qurilish kuzatiladi. Bu o'spirinning katta yoshdagilar safiga o'tishini anglatadi.

O'spirinning jismoniy shakllanishi. Jismoniy sog'lomlik aqliy yetuklik bilan bir qatorda zarurdir.

Bosqichma-bosqich amalga oshayotgan o'tish jarayonida o'spirin tanasi o'sibgina qolmay, tana shakli va hajmi ham o'zgarib boradi. Shu tufayli bola libosini loyihalashda o'spirinning yoshidagi asosiy xususiyatlar inobatga olinadi.

Jismoniy normal holatni sog'lom tana va ishg'a yaroqliqlik bilan belgilash mumkin. Jismoniy rivojlanishni aniqlashda bir qator tana o'lchamlari asos qilib olinadi. Tananing uzunligi (bo'y), ko'krak aylanasi, tana og'irligi, tananing turli a'zolarining sezuvchanlik darajasi shular jumlasidandir. Jismoniy yetuklik bir qator bosqichlarda amalga oshadi va inson yoshiga bog'liq bo'ladi.

O'spirinlar va katta yoshdagilarning fiziologik rivojlanish tushunchasi turlicha. O'spirin gavdasida katta yoshdagilar gavda tuzilishida bor xususiyatlar bo'lmagani, ular gavdasi nomutanosibligini keltirib chiqaradi. O'tib borayotgan yuz yillik natijalari shuni tasdiqlaydiki, o'spirinlar orasida fiziologik rivojlanish – akseleratsiya keng sur'atlarda o'sib bormoqda. "Akseleratsiya" tushunchasi o'spirin bo'yining tezlikda o'sishi va rivojlanishi, katta yoshdagilarda esa o'lchamlarning kattalashuvi bilan ifodalanadi. Akseleratsiya asosan yangi tug'ilgan chaqaloqlarning o'rtacha hajmida (o'g'il bolalarda – 3.5 kg, qiz bolalarda – 3.4 kg; tana uzunligi – 51.5-51.0), o'spirin va yosh bolaning tana tuzilishining ayrim qismlaridagi hajmning ortishida, erta jinsiy yetilishda va tezlikda bo'yning me'yoriy holatiga kelishida kuzatilmoqda.

Bo'y o'sishining jadal sur'ati bolada o'rtacha 25 smni tashkil etadi. Bu jarayon bolaning ilk yashash davriga to'g'ri keladi. Hayot davomida bu sur'at asta-sekin kamayib boradi. Fiziologik nuqtayi nazardan qaralsa, o'spirinlik davri bo'yning intensiv o'sishini, qon aylanish jarayonining tezlashuvini, kislorodga bo'lgan talabning ortishini, tezlikda temir moddasining organizmda ko'payishini va nihoyat jinsiy yetuklikni xarakterlaydi.

Bu davr ichida bo'yning yillik maksimal o'sishi 6-7 sm ni tashkil etadi. Ammo o'spirinning tana og'irligi bo'yning uzunligiga mutanosibligi yo'qoladi. 10-12 yoshlar atrofida qizlar yigitlarga nisbatan tezroq o'sadi. Shu sababli o'rtacha qizlarning bo'y o'lchami yigitlar bo'y o'lchamiga nisbatan uzunroq bo'ladi. 13 yoshga kelganda bu nomutanosiblik tenglashadi va kelgusida yigitlarda bu nisbat kattalashib boradi. 10-12 yoshdagi qizlarda o'rtacha tana tuzilishidagi o'zgarishlarning o'g'il bolalarga nisbatan tezroq boshlanishini va o'g'il bolalarga nisbatan tezroq tugashini bildiradi. Bu davrda qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan ancha yirik hajmda bo'ladi. Antropologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki 16-17 yoshda qizlar tana uzunligi o'sishining maksimal nuqtasiga keladi, o'g'il bolalarda esa bu 18-19 yoshlarga kelib to'xtaydi.

Yosh ovtgan sari ko'krak aylanasi o'spirinda o'sib boradi. Bu jarayon tana skeletining o'sishi, mushaklar va tana osti yog'lardagi o'zgarishlarga bog'liq. Ko'krak aylanasi o'sish

mobaynida bir tekisda o'smaydi. 11-12 yoshlar atrofidagi qizlarda bu ko'rsatkich maksimal (5-6 sm) holatda bir yillikda kuzatilsa, o'g'il bolalarda 12-14 yoshda maksimal (4-5 sm) holatda sodir bo'ladi [8].

Shu sababli o'spirinlar uzaytirilgan siluetni hosil qiladi. Yurak shakli taxminan 25% ga kattalashadi. Yurak bosimi biroz ko'tariladi. Yurak urishining chastotasi 14-15 yoshda kamayib, bir daqiqada 70 ta zarbaga yetadi. O'pka sathida nafas olish jarayoni tezlashadi. 8 yoshda mushaklar masofasi 27,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, o'n olti yoshda bu 44,2 % ni tashkil etadi. Asab tizimlarining ta'sirchanligi o'sib boradi. His-hayajon holatlar yuzaga kelib, ishga yaroqlilik ortib boradi. Tuxum hujayralarning yetilishi, gormonal o'zgarishlarning sodir bo'lishi, eng muhimi jinsiy yetukligi boshlang'ich davrini vujudga keltiradi.

O'spirinlik davrida o'spirin (qiz, bola) qarama-qarshi jins vakiliga nisbatan intilishi his qiladi. Bu o'tish davri muhabbatga bo'lgan ulkan talab, qalb isyoni va siqilishlarni boshidan kechirish bilan o'spirin qalbini jarohatlaydi. Bu davrda o'spiringa qarama-qarshi jins egasi bilan bo'lgan munosabatlarda to'g'ri tarbiya va ko'nikmalarni o'rgatish ota-onaning asosiy vazifasi sanaladi.

Bu kuzatuvlarni hisobga olgan holda o'spirin gavdasining konstruktiv mukammal o'lchamlarini olish imkoniga ega bo'lish mumkin.

Qabul qilish – bu buyumni yoki borlikni boricha, hech qanday ta'sirlarsiz inson tomonidan kutib olinishidir. Qabul qilish xuddi his qilish kabi inson asab tizimlariga ta'sir o'tkaza oladi. Rangning insonga ta'siri doim bir qator sabablarni tashkil etadi. Shuni yodda tutish kerakki, rang turli insonlarga turlicha va qay holda ko'rinishiga qarab ham ta'sir o'tkazadi. Yorug'likning o'zgarishi bir predmetni turlicha ko'rish imkonini yaratadi. Natijada shunday xulosaga kelish mumkin. Rangning emotsional ta'siri ikki xil ko'rinishni kasb etadi;

- 1) fiziologik – qo'zg'atuvchi yoki xotirjam qiluvchi
- 2) rang bilan bog'liq assotsiatsiyasini.

Ammo rang haqida to'xtalganda insonning jamiyatdagi o'rni va individual xususiyatlari albatta hisobga olinishi muhim omil. Shu sababli insonning rangni qabul qilish emotsiyasi haqida bir to'xtamni belgilash mushkul.

Rangni qabul qilish rangning emotsional holatidan kelib chiqadi. Xona interyerida maqbul ko'ringan rang matoda nomaqbul yechim bo'lishi mumkin.

Insoniyat shunday yaralganki, u go'zallik, mukammallik va xursandchilikka intiladi. Bundan insonning rangga bo'lgan asosiy e'tiborining sababini anglash mumkin. Inson o'z fe'l atvori, shaxsiyati va dunyo haqidagi mukammal tushunchalarga to'liq ega emas. Bazi narsalarni ko'z bilan ba'zi narsalarni esa eshitish orqali soddagina qabul qilish mumkin. Aslini olganda ko'z bilan aniq korib turgan ranglarni ham yashirin manolari bo'lishi mumkin.

Olimlarni aniqlashicha qizil rangni qabul qilishga X xromosoma aniqrog'i uning tarkibidagi gen javob beradi. Qizlar DNKsi tarkibida bu kabi xromosomalar ikkita bo'lganligi bois ular qizil rangni yorqinroq va har bir kichik elementlariga qadar aniq qabul qiladi. O'g'il bolalar DNKsi tarkibida esa bu turdagi xromosoma bitta. Shu sababli ham ular och qizil, qirmizi va qizil kabi tuslarni bir biridan ajrata olmasligi olimlar tomonidan aniqlangan.

Kaliforniya olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning birida musiqaning ham rangi mavjud ekanligi aniqlandi. Bir guruh ko'ngillilar ishtirokida o'tkazilgan natijalarga ko'ra, ijobiy ma'noga ega bo'lgan musiqalar inson tasavvurida iliq rangli ta'surotlar misol uchun sariq rang ko'rinishlarni hosil qilishi aniqlandi. Shu bilan birga g'amgin musiqalar inson tasavvurida to'q ranglar ko'rinishini hosil qilishi aniqlandi.

Xromofobiya– insonning ma'lum bir rangdan qo'rqish kasalligidir. Agar etiborli bo'linsa ayrim insonlar ma'lum bir rangga bo'yalgan honalarda o'zlarini noqulay his qilishi olimlar tomonidan aniqlangan. Tashqi tomondan qaraganda buni ongsiz bezovtalik huruji deb o'ylasa bo'ladi. Aslida barchasi bundan ham murakkabroq. Bunday hurujlar nafaqat ma'lum bir rangdagi honalar ichida emas ma'lum rangdagi libos, idish tovoq, yoki buyum bilan to'qnash kelib qolganda ham sodir bo'ladi. Bu kabi muammolar ruhiy jarohatlar oqibati olaroq yuzaga keladi. Xromofobiya bezovtalik hissi ko'ngil aynishi bosh aylanish holatlari bilan birga kichadi [10] .

Kuch, aql, boylik, fikrning tiniqligi va estetik qarashning to'g'ri tanlovi xalqning o'ziga xosligi va yashab turgan atrof muhit, tabiatga chambarchas bog'liqligini bildiradi. Shu sababli xalq ijodiyoti eng to'g'ri va ajoyib tanlovdir. Ko'pchilik, shu jumladan o'spirinlar bir rangga bir xil reaksiya bildiradi. Ba'zan bolada yoshlikdagi ko'nikmalar ta'siri ostida rangga nisbatan assotsiatsiya tug'ilishi va umr davomida buni unutish holati kuzatiladi. Ba'zi insonlarda rangni qabul qilishda "oqsash" kuzatiladi; daltoniklar rangni to'g'ri ko'rmaydilar. Rang sezuvchanlik darajasi ko'zning ko'rish qobiliyatining sustligi va o'ta yuqoriligiga ham bog'liq. Ba'zi insonlarda rangni o'rni, hid bilish va eshitish bilan ham tenglashadi. Har bir insonda o'z sevimli rangi mavjud. Ammo yil o'tgan sari bu tanlov o'zgarishi kuzatiladi. Yosh o'tib borishi bilan odamlarga pastel ranglar yoqib boradi. O'spirinlarda esa bu aksincha katta assotsiatsion tajribaning yo'qligi bilan ular yorqin ranglarga intilishadi. Ko'pchilik o'spirinlarda issiq ranglarga intilish kuchli seziladi. Bunday intilish 7 yoshdan boshlanib, o'spirinlik davrining tugashi uning tugallangan davriga to'g'ri keladi. 7 yosh bolaga qizil rang yoqqani va 17 yoshdagi o'spiringa sariq rangning yoqishini misol tariqasida keltirish mumkin [9].

Xulosa qilinsa tahlillar natijasiga ko'ra quyidagilar ko'rib chiqiladi:

- o'spirin bolalarning kiyim - bosh to'plamini loyihalashdan avval bolalar kiyimlariga qo'yiladigan umumiy talab va qoidalarni chetlab bo'lmasligi va bu qoidalar doirasida ish olib borish zarurligi;
- mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlarning tahlili;
- o'spirinning harakatlanishi va harakat jarayonida bosimning qay yonalishga ko'proq o'tishi;
- kiyim-boshning ekspluatatsiya davriga chidamliligining o'ziga xos xususiyatlari;
- o'spirin bolaning psixologik shakllanishining o'ziga xos bosqichlari;
- o'spirinning jismoniy shakllanish jarayoni, aqliy yetukligiga jismoniy sog'lom bo'lishning ta'siri;
- o'spirin o'tish davrida rangni qanday qabul qilishi va uning rangga bo'lgan aks reaksiyasi;
- rang bilan bog'liq assotsiatsiyalar va fiziologik ta'sir o'tkazuvchi ranglar to'g'risidagi umumiy xulosalar yoritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari». – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2020, 1-10.
2. Куренова С.В. «Исследование и совершенствование методов». - М.: 2004.
3. Мамедова Ф.А. «Исследование и разработка рациональной технологии изготовления одежды стабильного ассортимента (на примере изделий для учащихся ПТУ)». - М.: 1988.
4. Шамухитдинова Л.Ш. «Разработка рациональных ассортиментных коллекции детской одежды и способов повышения ее долговечности для условий Средней Азии». - М.: 1992.
5. Бескоровая Г.П. «Проектирование детской одежды». – М.: Мстерство, 2000.
6. Ушаков Г.К. «Детская психология». – М.: Медицина, 1973.
7. Зверев И.Д. «Книга для чтения по анатомии, физиологии и гигиене человека». – М.: просвещение, 1978.
8. Дунаевская Т.Н., Коблякова Е.Б., Ивлева Г.С. «Размерная типология населения с основми антомии и морфологии». – М.: легкая индустрия, 1980.
9. Козлова Т.В. «Цвет в костюме». – М.: 1989.
10. <https://odam.uz/news/Ranglar-haqida-qiziqarli-faktlar>